

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/30.09.2020.K.82.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABLAKULOV LOCHINBEK QUCHQOROVICH

**AYRIM DIKETONLAR ASOSIDA ATSETILEN DIOLLARI SINTEZI VA
ULARNING KIMYOVIY O'ZGARISHLARI**

02.00.03 – Organik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Chemical sciences**

Ablakulov Lochinbek Quchqorovich

Ayrim diketonlar asosida atsetilen diollari sintezi va ularning kimyoviy o‘zgarishlari..... 3

Аблакулов Лочинбек Қучқорович

Синтез ацетилендиолов на основе некоторых diketонов и их химические превращения 21

Ablakulov Lochinbek Quchqorovich

Synthesis of acetylene diols based on certain diketones and their chemical transformations 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc03/30.09.2020.K.82.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABLAKULOV LOCHINBEK QUHQOROVICH

**AYRIM DIKETONLAR ASOSIDA ATSETILEN DIOLLARI SINTEZI VA
ULARNING KIMYOVIY O'ZGARISHLARI**

02.00.03 – Organik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/K1028 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.cspi.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ikramov Abduvaxab
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdushukurov Anvar Kabirovich
kimyo fanlari doktori, professor

Qodirov Xasan Irgashovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.09.2020.K.82.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "7" I soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-716-68-05, faks (0370) 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (428 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-716-68-05, faks (0370) 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "7" I kuni tarqatildi
(2026-yil "7" I daqi 29 raqamli reyestr bayonnomasi).



O.E.Ziyadullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

G.Q.Otamuxamedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d.

A.G.Maxsumov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi vaqtda jahonda organik kimyoda alifatik, aromatik va geterosiklitik o‘rinbosarlarga ega bo‘lgan biologik faol atsetilen spirtlarini sintez qilishning yuqori samaradorlikka ega yangi usullari rivojlanmoqda. Ushbu moddalar polimer va plastik materiallar, farmatsevtika, to‘qimachilik, fungitsidlar, mashinasozlik, antibiotiklar va bo‘yoq sanoatida keng qo‘llaniladi, bu ularga bo‘lgan talabni doimiy oshirmoqda. Natijada, nozik organik sintez asosida innovatsion moddalar ishlab chiqarish, ularning xususiyatlari va qo‘llanish imkoniyatlarini o‘rganish zaruriyati paydo bo‘ldi. Ayniqsa, yuqori sifatli atsetilen spirtlarini neft-gaz, kimyo, rezina-texnika va farmatsevtika sohalarida qo‘llash strategik ahamiyatga ega.

Dunyo miqyosda atsetilen birikmalari asosida fungitsidlar, va ingibitorlarni sintez qilish metodlari, katalitik tizimlarni takomillashtirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, ayrim atsetilen spirtlari bilan reaksiyalari asosida biologik faol birikmalar olish, atsetilen spirtlari va diollarning sintezi, ularning fizik-kimyoviy xossalari, ionitlar, biotsidlar va polimer kompozitlar sifatida samaradorligini aniqlashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda dunyo bozorida raqobatbardosh yangi turdagi atsetilen birikmalarini sintez qilishda mahalliy xomashyo va ikkilamchi chiqindi mahsulotlaridan maqsadli foydalanish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada atsetilen spirtlari va ularning turli hosilalarini olishning muqobil usullarini aniqlash hamda ularni joriy etish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida¹gi Farmonda “Kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash” hamda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “mutlaqo yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, shu asosda tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardosh mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta‘minlash”²ga yo‘naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan selektiv katalitik sistemalarda atsetilen spirtlari, diollari va ular asosida oddiy va murakkab efirlar sintez qilish usullari va texnologiyalarini topish, ularni identifikatsiyalash, texnik hamda texnologik parametrlarini ishlab chiqish va ulardan samarali biologik faol moddalarni yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-fevraldagi PF-4992-son “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983-son “O‘zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

to'g'risida", 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari ijrosini ta'minlashda hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Grinyar-Iotsich va Favorskiy usullari hamda ketonlar asosida atsetilen diollari sintezi amalga oshirilgan, ammo tarkibida, turli o'rinbosarlar saqlagan ketonlarni atsetilen, oktin-1 va fenilatsetilen asosida alkinlash reaksiyasi asosida atsetilen diollari sintezi amalga oshirilgan, ammo atsetilen spirtlari va diindiollar sintezi amalga oshirilmagan.

Xalqaro miqyosda Daniel R. Fandrick trimetilsilil alkil birikmalari yordamida aldegidlar bilan xiral gomopropargil spirtlarini sintezlash usulini ishlab chiqqan. Jerome Blanchet esa terminal alkinlarga trimetilalyuminiy moddasini singdirish orqali yangi yondashuvni taklif etgan. Ketonlarni katalitik aylantirish bo'yicha Soniya Rodriguez XANTPOS, (+)-DUANPHOS, (S)-BINAP kabi metallorganik katalizatorlardan foydalangan holda innovatsion usullarni ishlab chiqdi. Zili Chen Nozaki-Hiyama Cr/Mn/DIPEA/TMSCl tizimi asosida atsetilenli spirtlarning assimetrik sintezi texnologiyasini yaratdi. Gomez-Bengoia esa aldegidlar va atsetilen o'rtasidagi aldol kross-kondensatsiya reaksiyasidan foydalanib diollar sintezini amalga oshirdi. L.V.Snegur organik elementli birikmalardan to'yinmagan spirtlar olish texnologiyasini, A.A.Frignani esa metall korroziyasiga qarshi atsetilenli ingibitorlarni ishlab chiqdi. Yumeng Xi yuqori oktanli benzin ishlab chiqarishda atsetilen derivatlaridan foydalanishni takomillashtirdi.

Respublikamizda atsetilen birikmalar kimyosi va texnologiyasi yo'nalishida bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, A.G.Maxsumov atsetilen spirtlari geterosiklik hosilalari sintezi va biologik faolliklari, E.Turg'unov tomonidan Grinyar-Iotsich va Zandmeer reaksiyalari asosida birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi atsetilen spirtlari va diollari sintezi, S.M.Turobjonov bir qator atsetilen spirtlarining fosfatli tuzlari sintezi, R.V.Aliqulov mahalliy sariq savrinjon (*Colchicum luteum*) o'simligidan ajratib olingan kolxaminning ayrim atsetilen spirtlari bilan reaksiyalari asosida biologik faol birikmalar olish ustida ilmiy ishlar olib bormoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №Ф3-20170926416 "Mahalliy xom-ashyolar asosida olingan ionitlar ishtirokida texnologik eritmalar va oqova suvlari tarkibidan metall ionlarini ajratib olish" fundamental loyihasi doirasida bajarilgan

Tadqiqotning maqsadi molekulasida ikkita karbonil guruh saqlagan ketonlarni Cu(OTf)₂/TBABr/TGF va EtMgBr/TGF katalitik sistemasida atsetilen, oktin-1 va fenilatsetilen ishtirokida atsetilen diollari sintezi va ular asosida,

viniloksi efirlar, oddiy efirlar va murakkab efirlar sintez qilish hamda ularni amaliyotga joriy etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: molekulasida alifatik, va geterosiklik o‘rinbosarlar tutgan ketonlarni geterogen katalitik katalizatorlar $\text{Cu}(\text{OTf})_2/\text{TBABr}/\text{TGF}$ va EtMgBr/TGF ishtirokida alkinlash orqali atsetilen diollarini sintez qilishning yangi usullarini ishlab chiqish;

olingan atsetilen diollarini $\text{Ti}(\text{OTf})_4/\text{C}_{\text{akt}}$ katalitik sistemasida, divinillash, $\text{Cu}(\text{OTf})_2/\text{Et}_3\text{N}/\text{CH}_2\text{Cl}_2/$ $\text{Zn}(\text{OTf})_2/\text{C}_6\text{H}_6$ va $\text{CuCl}/\text{Bu}_4\text{NOH}/\text{KOH}$ katalitik sistemasida oddiy efirlar va $\text{H}_2\text{SO}_4/\text{C}_6\text{H}_6$ katalitik sistemada murakkab efirlar sintez qilishning samarali usullarini topish;

atsetilen diollari, viniloksi efirlar, oddiy va murakkab efirlarini, sintez qilishning muqobil sharoitlarini ishlab chiqish, reaksiya mexanizmlarini taklif etish, jarayonlarni boshqarish va nazorat qilish, kinetik hisoblashlarini amalga oshirish, jarayonlarni optimallashtirish va matematik modellashtirish;

tanlangan ketonlarning tabiati asosida atsetilen diollari va ularning turli hosilalarini sintez qilishning samaradorlik qatorini topish, atsetilen diollari va ular asosida olingan yangi turdagi organik birikmalarning tuzilishi va konfiguratsiyasini kimyoviy o‘zgarishlarga ta’sir qilish qonuniyatlari topish, reaksiya ximizmi va mexanizmini ishlab chiqish, sintez qilingan birikmalarning reaksiya qobiliyatini o‘rganish, faolligi va barqarorligini aniqlash va olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilish;

atsetilen diollari va hosilalarini konfiguratsiyasi, kvant-kimyoviy hisoblashlari, tarkibi, tuzilishi va tozaligini fizik-kimyoviy tadqiqot usullarida isbotlash va identifikatsiyalash;

atsetilen diollari va ular asosida, diviniloksi efirlar, oddiy va murakkab efirlarning qo‘llanish sohasini amaliyotga joriy etish.

Tadqiqot obyekti sifatida atsetilen, oktin-1 va fenilatsetilen, ketonlar, atsetilen diollar, diviniloksiefirlar, oddiy va murakkab efirlar kompleks katalitik sistemalar, erituvchilar, tuz hosil qiluvchi komponentlar, ingibitor va ionitlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini atsetilen diollari, ular asosida olingan viniloksiefirlar, oddiy va murakkab efirlar, qurituvchi, katalizator, aktivator, ligand, promotor, erituvchi, ionit va ingibitorlar tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar natijasida sintez qilingan mahsulotlar, spektroskopiya tahlil natijalari (^1H YaMR-, ^{13}C YaMR-, IQ- va mass-spektrometriya), xromatografiya (YQX, KX), rentgen tuzilishi, kvant-kimyoviy va element tahlili natijalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor molekulasida alifatik va geterosiklik o‘rinbosarlar saqlagan diketonlarni atsetilen, oktin-1 va fenilatsetilen bilan nukleofil birikish reaksiyasi asosida bir qancha reaksiya faol markazlardan tashkil topgan atsetilen diollari sintez qilingan;

ilk bor turli xil tabiatga ega ketonlarni yangi kompleks katalitik sistemalar- $\text{Cu}(\text{OTf})_2/\text{TBABr}/\text{TGF}$ va EtMgBr/TGF yordamida atsetilen, oktin-1 va fenilatsetilen bilan nukleofil birikish reaksiyalarining borishi aniqlangan, katalizatorlarning mahsulot unimiga selektiv ta’siri, qo‘shimcha reaksiyalarining

borishi, oraliq va qo‘shimcha mahsulotlarning hosil bo‘lishi va ularni ajratish usullari aniqlangan, atsetilen diollarini yuqori unim bilan sintez qilishning yangi usullari ishlab chiqilgan;

atsetilen diollarini sintez qilish reaksiya bosqichlari, ximizmi va mexanizmi taklif etilgan, jarayonlar eng muqobil sharoitlari topilgan hamda erituvchi, katalizator, ligand va oraliq birikmalarning reaksiya tezligi va faollanish energiyasiga ta’siri hisoblangan, ketonlar tabiati, ularning reaksiyon qobiliyati, jarayon borishi va mahsulot unumiga ta’sir qilish qonuniyatlari ishlab chiqilgan, katalizatorlarning stabilligi, faolligi va qaytar reaksiyalarga ta’siri aniqlangan;

ilk bor atsetilen diollarini $Ti(OTf)_4/C_{akt}$ katalitik sistemasida fenilatsetilen bilan vinillash reaksiyalari amalga oshirilgan va yuqori unum bilan viniloksi efirlar hosil bo‘lishi aniqlangan;

ilk bor atsetilen diollarini $Cu(OTf)_2/Et_3N/CH_2Cl_2$, $Zn(OTf)_2/C_6H_6$ va $CuCl/Bu_4NOH/KOH$ katalitik sistemalarda etil spirti, benzil spirti va 2-(brommetil)piridin gidrobromid ishtirokida oddiy efirlar sintezi qilingan;

H_2SO_4/C_6H_6 katalitik sistemasida atsetilen diollarini sirka kislota, benzoy kislota va akril kislota ishtirokida eterifikatsiyalash jarayoni ilk bor amalga oshirilgan va yangi turdagi murakkab efirlar sintez qilingan;

atsetilen diollari va ular asosida olingan viniloksi efirlar, oddiy va murakkab efirlarning xususiy kattaliklari aniqlangan, kvant-kimyoviy parametrlari hisoblangan, tozaligi xromatografik, tuzilishi spektroskopik, tarkibi element analiz, elektron tuzilishi kvant-kimyoviy usullarida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

molekulasida alifatik va geterosiklik o‘rinbosarlar saqlagan ketonlar bilan va atsetilen, oktin-1 va fenilatsetilen nukleofil birikishi asosida o‘n sakiz xil atsetilen diollari, 1-12 atsetilen diollariga fenilatsetilen nukleofil birikishidan o‘n ikki xil viniloksi efirlar, atsetilen diollariga benzil spirit va etil spirti bilan reaksiyasi natijasida o‘n sakizta oddiy efir, atsetilen diollariga etil spirt, benzoy kislota va karbon kislota bilan reaksiyasi natijasida o‘n sakizta murakkab efirlar olingan;

atsetilen diollar, viniloksi efirlar, oddiy va murakkab efirlar turli xil katalitik sistemalar ishtirokida sintez qilishning yangi metodlari ishlab chiqilgan va ularning xususiy, fizik-kimyoviy, kvant-kimyoviy, termodinamik, biologik, rentgen, supremolekulyar va spektral xarakteristikalari aniqlangan;

atsetilen diollaridan gaz mahsulotlari tarkibidagi oltingugurt va oltingugurtli birikmalardan tozalovchi ingibitorlar sifatida, Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish korxonalarini aylanma oqava suvlaridagi tuz qatlam hosil qilishga qarshi ionitlar olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy fizik-kimyoviy texnologiyalar IQ-, 1H YaMR-, ^{13}C YaMR- spektroskopiya, xromatografiya, mass spektrometriya, (YQX, KX), (ACDFREE) usullar ishtirokida olingan natijalar asosida tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Olingan natijalarining ilmiy ahamiyati atsetilen diollari va ularning hosilalarini sintez qilishda erituvchilar roli, katalitik faol markazlarning hosil bo‘lishi, ketonlar, diollar va ularning hosilalari tabiati, molekula tarkibi, tarmoqlanishi, joylashuvi, simmetrik molekulyar massasi, fazoviy tuzilishi, yoki nosimmetrik holati, elektron

bulutlarning zichligi va taqsismlanishi, reaksiya jarayonida karbokation va karboanionlar hosil bo'lishi, reaksiyaga kirishish qobiliyati, agregat holatlari, jarayonni boshqarish va nazorat qilish ketma-ketligi ilmiy qonuniyatlarga tayangan holda ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati atsetilen, oktin-1 va fenilatsetilen asosida atsetilen diollari ilk bor sintez qilingan, yangi kompleks katalitik sistemalar yordamida birinchi marta atsetilen diollar, viniloksi efirlar va oddiy va murakkab efirlar olish usullari ishlab chiqilgan, sintez qilingan atsetilen diollaridan tabiiy gaz tarkibida oltingugurt va oltingugurtli birikmalar miqdorini kamaytirish sifatida foydalanish, texnologik qurilmalar foydali ish koeffitsiyentini oshiruvchi ingibitorlar, ekologik toza va yuqori sifatli neft-gaz mahsulotlarini ishlab chiqarishga hizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi. Turli xil tabiatga ega bo'lgan ketonlar va atsetilen, oktin-1 va fenilatsetilen asosida atsetilen diollari sintezi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Sintez qilingan atsetilen diollari jumladan, 3,4-dimetilgeksadiin-1,5-diol-3,4, 3,5-dimetilgeptadiin-1,6-diol-3,5, 3,6-diimetiloktadiin-1,7-diol-3,6 va 3-(tiofenil-2)-5-(triflorometil)geptadiin-1,6-diol-3,5 "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MChJ da tabiiy gaz tarkibidagi oltingugurt va oltingugurtli birikmalarni ajratib oluvchi ingibitorlar sifatida amaliyotga joriy qilingan ("Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MChJ ning 2025 yil 9 iyuldagi №966/G'K-07-son ma'lumotnomasi). Natijada tabiiy gaz tarkibida oltingugurt va oltingugurtli birikmalar miqdorini kamaytirish imkonini bergan;

sintez qilingan 9-(tiofenil-2)-11-(triflorometil)nonadekadiin-7,12-diol-9,11, 3,4-dimetilgeksadiin-1,5-diol-3,4 va 3,5-dimetil-1,7-difenilgeptadiin-1,6-diol-3,5 lar sanoat oqava suvlari tarkibida tuz qatlam hosil qiluvchi komponentlarga qarshi ingibitor sifatida Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish korxonasida amaliyotga joriy qilingan (Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish korxonasining 2025 yil 16 iyuldagi №ОП25/ЭД-2493-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sanoat korxonalari texnologik qurilmalarida tuz qatlam hosil bo'lishini 78% gacha kamaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 13 ta, jumladan, 10 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola respublika va 2 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 125 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan,


tadqiqotni ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Atsetilen spirtlari sintezi, texnologiyalari va ularning fizik-kimyoviy xossalari”** deb nomlangan birinchi bobida Favorskiy reaksiyasi asosida atsetilen spirtlari va diollari hamda ularning hosilalarining sintezi, ularning molekulyar va konformatsion xususiyatlari, ishlab chiqarish texnologiyalari, fizik-kimyoviy xossalari, ular asosida boradigan kimyoviy jarayonlar hamda qo'llanilishiga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlarning ilmiy tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ayrim atsetilen diollarini va ularning turli hosilalarini sintez qilish usullari”** mavzusidagi ikkinchi bobida alifatik va geterosiklik o'rinbosarlar saqlagan ketonlarni atsetilen, oktin-1 va fenilatsetilen ishtirokida alkinillash orqali yangi avlod atsetilen diollari (AD)ni sintez qilish usullari keltirilgan. Sintez qilingan AD asosida viniloksi efirlar, oddiy va murakkab efirlarni olish usullari hamda ularni sintez qilishda foydalanilgan boshlang'ich moddalar, katalizator, erituvchi, qurituvchilarning xususiy xossalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ayrim atsetilen diollari, ular asosida viniloksi efirlar, oddiy va murakkab efirlar olinishi hamda ularning xossalari”** nomli uchinchi bobida AD ni sintez qilish jarayonlari tizimli bayon etilgan.

1-usul. Cu(OTf)₂/TBABr/TGF katalitik sistemasida atsetilen spirtlarining olinishi: Cu(OTf)₂/TBABr/TGF katalitik sistemasi yordamida molekulasida ikkita karbonil guruhi saqlagan butadion-2,3, pentadion-2,4, 3-metilpentadion-2,4, geksadion-2,5, 1-(tiofenil-2)pentadion-1,4 va 4,4,4-trifloro-1-(tiofenil-2)butadion-1,3 kabi ketonlarning atsetilen, oktin-1 va fenilatsetilen bilan nukleofil birikish reaksiyasi bo'yicha mos ravishdagi AD ni sintez qilish jarayoni amalga oshirildi.



1-18

R₁= Me, R₃= Me, R₄= H (1)

R₁= Me, R₂= H, R₃= Me, R₄= H (2)

R₁= Me, R₂= Me, R₃= Me, R₄= H (3)

R₁= Me, R₂= 2H, R₃= Me, R₄= H (4)

R₁= Th, R₂= H, R₃= Me, R₄= H (5)

R₁= Th, R₂= H, R₃= CF₃, R₄= H (6)

R₁= Me, R₃= Me, R₄= Hx (7)

R₁= Me, R₂= H, R₃= Me, R₄= Hx (8)

R₁= Me, R₂= Me, R₃= Me, R₄= Hx (9)

R₁= Me, R₂= 2H, R₃= Me, R₄= Hx (10)

R₁= Th, R₂= H, R₃= Me, R₄= Hx (11)

R₁= Th, R₂= H, R₃= CF₃, R₄= Hx (12)

R₁= Me, R₃= Me, R₄= Ph (13)

R₁= Me, R₂= H, R₃= Me, R₄= Ph (14)

R₁= Me, R₂= Me, R₃= Me, R₄= Ph (15)

R₁= Me, R₂= 2H, R₃= Me, R₄= Ph (16)


R₁= Th, R₂= H, R₃= Me, R₄= Ph (17)

R₁= Th, R₂= H, R₃= CF₃, R₄= Ph (18)

Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan AD unumiga hamda jarayon selektivligiga ta'sir qiluvchi katalizator va erituvchilar tabiati hamda miqdori, harorat va reaksiya davomiyligi kabi omillarning ta'siri tizimli tahlil qilindi.

Dastlab AD sintezi jarayoni va mahsulot unumiga erituvchilari (MeCN, TGF) tabiati ta'siri o'rganildi. AD sintez qilishda erituvchi MeCN ishtirokida ketonlarning alkinillanish jarayoni olib borilganda, mahsulot unimdorligi past bo'lganligi sababi, uning molekulasida tarkibidagi -C≡N nukleofil reagent ta'sirida

karbonil guruhi bilan yondosh reaksiya borishi natijasida sianospirtlar hosil bo'lishi hisobiga AD unumining pasayishi kuzatildi. Dielektrik konstantasi va dipol momenti MeCN ga nisbatan farqli bo'lgan TGF da AD unumlari yuqori samaradorlikda chiqdi. Unga ko'ra, jarayon TGF eritmasida tanlangan AD, jumladan 1- 80; 2- 79,2; 3- 80,1; 4- 81; 5- 81,5; 6- 82,5; 7- 83,1; 8- 81,7; 9- 83,8; 10- 82,9; 11- 84,4; 12- 85; 13- 84,6; 14- 86,1; 15- 88,5; 16- 86,7; 17- 85; 18- 86,2% maksimum unum bilan sintez qilindi.



1-rasm. AD unumiga reaksiya davomiyligi (harorat -10 °C, erituvchi TGF)

Sintez qilingan AD unumiga reaksiya davomiyligining ta'siri tadqiq qilindi (1-rasm). Bunda ketonlarni alkinillash jarayonlari 60÷180 minut intervallarda amalga oshirildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, reaksiya 60 minutda olib borilganda AD minimum, reaksiya davomiyligi 120 minut qilib olinganda sistema faol katalitik muhitning vujudga kelishi hisobiga boshlang'ich moddalar to'liq reaksiyaga kirishishi hisobiga AD maksimum unimda chiqishi kuzatildi. Reaksiya vaqti 180 minutga oshirilganda esa sistemada qo'shimcha mahsulotlar ko'p miqdorda hosil bo'lib, AD unumiga salbiy ta'sir qilishi kuzatildi.


AD unumiga 10°C dan -20°C intervallarda harorat ta'siri o'rganildi. Tanlangan Cu(OTf)₂/TBABr/TGF katalitik sistemada harorat 10°C dan 0°C ga tushirilganda mahsulot unumi oshib bordi. Harorat yana -10°C ga tushirilganda maksimal unum bilan AD hosil bo'lganligi tadqiqot natijalari asosida isbotlandi. Reaksiya -20°C haroratda olib borilganda esa sistemada qaytar jarayon ketishi, ketonlar kondensatsiyaga uchrashi hamda AD molekulasida bir nechta reaksiyon markaz mavjudligi uchun qo'shimcha reaksiyalar ketib polimer-smolasimon moddalar hosil bo'lishi hisobiga mahsulot unumining kamayishi kuzatildi.

Olingan tadqiqot natijalariga ko'ra, ilk bor Cu(OTf)₂/TBABr/TGF katalitik sistemasida AD sintez qilishning eng muqobil sharoiti topildi. Unga ko'ra butadion-2,3, pentadion-2,4, 3-metilpentadion-2,4, geksadion-2,5, 1-(tiofenil-2)pentadion-1,4 va 4,4,4-trifloro-1-(tiofenil-2)butadion-1,3 ketonlarni atsetilen, oktin-1 va fenilatsetilen ishtirokida alkinillash reaksiyalari uchun harorat -10°C, erituvchi TGF, reaksiya davomiyligi 120 minut, boshlang'ich moddalar mol miqdori 2:1 nisbatda olinganda AD eng yuqori unum bilan hosil bo'ldi.

Sintez qilingan AD ayrim fizik kattaliklari

AD	Brutto formulasi	Molekulyar massasi	T _q , °C	n _d ²⁰	d _n ²⁰	Agregat holati
1	C ₈ H ₁₀ O ₂	138,18	174	1,482	0,989	suyuq
2	C ₉ H ₁₂ O ₂	152,21	159	1,497	0,962	suyuq
3	C ₁₀ H ₁₄ O ₂	166,24	264	1,565	1,108	kukun
4	C ₁₀ H ₁₄ O ₂	166,24	217	1,562	1,031	suyuq
5	C ₁₂ H ₁₂ O ₂ S	220,31	262	1,458	1,209	suyuq
6	C ₁₂ H ₉ O ₂ SF	236,28	165	1,456	0,914	suyuq
7	C ₂₀ H ₃₄ O ₂	306,49	170	1,543	1,105	suyuq
8	C ₂₁ H ₃₆ O ₂	320,57	165	1,407	1,221	suyuq
9	C ₂₂ H ₃₈ O ₂	334,60	150	1,566	1,045	suyuq
10	C ₂₂ H ₃₈ O ₂	334,60	190	1,508	0,985	suyuq
11	C ₂₄ H ₃₆ O ₂ S	388,67	245	1,305	0,945	suyuq
12	C ₂₄ H ₃₃ O ₂ SF	405,65	270	1,278	1,204	suyuq
13	C ₂₀ H ₁₈ O ₂	290,38	137	1,442	0,888	suyuq
14	C ₂₁ H ₂₁ O ₂	305,42	168	1,453	0,872	suyuq
15	C ₂₂ H ₂₂ O ₂	318,44	200	1,459	0,879	suyuq
16	C ₂₂ H ₂₂ O ₂	318,44	280	1,460	0,876	suyuq
17	C ₂₄ H ₂₁ O ₂ S	373,52	230	1,488	0,97	suyuq
18	C ₂₄ H ₃₃ O ₂ SF	388,48	224	1,480	0,931	suyuq

2-usul. Grinyar-Iotsich usulida atsetilen diollari sintezi: Ushbu usulda AD sintemasi jarayoni C₂H₅MgBr/TGF katalitik sistemasida amalga oshirildi. Reaksiya sxemasi adabiyot manbaalari asosida quyidagicha taklif etildi.



Grinyar-Iotsich reaktivi asosida AD sintez qilish jarayoni, -5 ÷ 0 °C harorat va 4 soat vaqt davomida DEE hamda TGF eritmalarida olib borildi. Tadqiqot natijalariga asosan mahsulot unimi TGF eritmasida DEE eritmasida nisbatan yuqori chiqishi aniqlandi. Jumladan, AD DEE eritmasida **1-** 67, **2-** 66, **3-** 64, **4-** 68, **5-** 65, **6-** 62, **7-** 72, **8-** 67, **9-** 72, **10-** 70, **11-** 70, **12-** 66, **13-** 71, **14-** 71, **15-** 67, **16-** 71, **17-** 68 va **18-** 65 % unum bilan, TGF eritmasida esa mos ravishda **1-** 81,3, **2-** 80,7, **3-** 80,2, **4-** 79,8, **5-** 79,2, **6-** 78, **7-** 78,5, **8-** 79, **9-** 78,4, **10-** 77,6, **11-** 77,1, **12-** 78,6, **13-** 76,7, **14-** 78,2, **15-** 79, **16-** 78, **17-** 76 va **18-** 75 % unum bilan sintez qilishga erishildi.

Erituvchi DEE va TGF da olib borilganda to'liq reaksiyaga kirisha olmagan ketonlar kondensatsiyaga uchrab qolishi yoki yenollanishi natijasida barqaror oraliq hamda qo'shimcha birikmalarni hosil bo'lishi hisobiga mahsulot unimi kamayishi kuzatiladi.

Grinyar-Iotsich reaksiyasi 6 soat davomida olib borilganda tanlangan erituvchilarda bir xil qonuniyat asosida mahsulot unumining kamayishi kuzatildi. Bunda jarayonda hosil bo'lgan atsetilen diollari reaksiyaga kirishmagan ketonlar bilan o'zaro ta'sirlashib atsetallar hosil qilishi, atsetilen spirtlari qisman polimerlanishi yoki eritmadagi Mg(OH)Br bilan ta'sirlashib alkogolyatlarga aylanishi natijasida mahsulot unumi kamayadi.


Tadqiqot natijalariga ko'ra Grinyar-Iotsich usulida atsetilen diollari olishda TGF eritmasida, reaksiya davomiyligini 4 soatda olib borilganda boshlang'ich moddalar to'liq reaksiyaga kirishib, eng optimal vaqt qilib belgilandi.

Bundan tashqari, atsetilen diollari unimiga erituvchilar tabiati ham o'rganildi, jadvaldan ko'rinib turibdiki, reaksiya DEE va TGF erituvchilarida olib borilgan, jarayon TGF eritmasida o'tkazilganda AD maksimum unim bilan chiqqanligi kuzatildi. Buning sababi TGF eritmasidagi alkil galogenidiga magniy metali ta'sir ettirilganda reaksiya juda tez borishi va ko'p miqdorda Grinyar reaktivining hosil bo'lishi aniqlandi hamda erituvchi TGF kuchli asos xossasiga ega bo'lganligi uchun Grinyar reaktivining kation qismini, ya'ni kislota qismini solvatlaydi. Bundan tashqari, ushbu erituvchilar nafaqat erituvchi, balki katalizator vazifasini ham bir vaqtda bajarib beradi. Katalitik reaksiyalarda asosiligi yuqori bo'lgan katalizatorlarning katalitik faolligi ham yuqori bo'lishi, bu esa, mahsulot unumining ortishiga olib keladi.


DEE erituvchida atsetilen diollari unimi past chiqishiga sabab DEE eritmasida alkil galogenidga magniy metali ta'sir ettirilganda reaksiya juda sekin ketishi aniqlandi, DEE dagi kislorod atomi umumlashmagan elektron jufti hisobiga kuchsiz asos xossasiga ega, bu esa, mahsulot unumining pasayishiga olib keldi.

Grinyar-Iotsich reaksiyasi aproton erituvchilar hisoblangan DEE va TGF eritmalarida olib borilganda, dielektrik doimiyligi va dipol momenti yuqori bo'lgan TGF da mahsulot unumi yuqori chiqishi isbotlandi.

Sintez qilingan AD tarkibi, tuzilishi, tozaligi, molekulyar massasi, fizik va kvant-kimyoviy kattaliklari zamonaviy tadqiqot usullari yordamida aniqlandi. Namuna sifatida (3) ^1H va ^{13}C YaMR-spektr natijalari keltirilmoqda.




2-rasm. 3,5-dimetilgeptadiin-1,6-diol-3,5 (3)ning ^1H YaMR-spektri, (400 MHz, $(\text{CD}_3)_2\text{CO}-d$) δ 4.58 (s, 2H), 2.33 (s, 2H), 2.06 (q, $J = 6.9$ Hz, 1H), 1.48 (s, 6H), 1.00 (d, $J = 6.8$ Hz, 3H).



3-rasm. 3,5-dimetilgeptadiin-1,6-diol-3,5 (3)ning ^{13}C YaMR-spektri,
 δ 87.02, 86.98,
 72.50, 69.94, 48.03,
 48.00, 47.97, 29.87,
 29.84, 6.18.

Atsetilen diollari asosida viniloksi efirlar sintezi: Sintez qilingan AD ilk bor geterogen-katalitik usulda, ya'ni $\text{Ti}(\text{OTf})_4/\text{C}_{\text{akt}}$ katalitik sistemasida fenilatsetilen bilan reaksiyalari tadqiq qilindi va tegishli viniloksi efirlar (VOE) sintez qilindi.



$\text{R}_1 = \text{Me}, \text{R}_3 = \text{Me}, \text{R}_4 = \text{H}$ (19)

$\text{R}_1 = \text{Me}, \text{R}_2 = \text{H}, \text{R}_3 = \text{Me}, \text{R}_4 = \text{H}$ (20)

$\text{R}_1 = \text{Me}, \text{R}_2 = \text{Me}, \text{R}_3 = \text{Me}, \text{R}_4 = \text{H}$ (21)

$\text{R}_1 = \text{Me}, \text{R}_2 = 2\text{H}, \text{R}_3 = \text{Me}, \text{R}_4 = \text{H}$ (22)

$\text{R}_1 = \text{Th}, \text{R}_2 = \text{H}, \text{R}_3 = \text{Me}, \text{R}_4 = \text{H}$ (23)

$\text{R}_1 = \text{Th}, \text{R}_2 = \text{H}, \text{R}_3 = \text{CF}_3, \text{R}_4 = \text{H}$ (24)

$\text{R}_1 = \text{Me}, \text{R}_3 = \text{Me}, \text{R}_4 = \text{Hx}$ (25)

$\text{R}_1 = \text{Me}, \text{R}_2 = \text{H}, \text{R}_3 = \text{Me}, \text{R}_4 = \text{Hx}$ (26)


$\text{R}_1 = \text{Me}, \text{R}_2 = \text{Me}, \text{R}_3 = \text{Me}, \text{R}_4 = \text{Hx}$ (27)


$\text{R}_1 = \text{Me}, \text{R}_2 = 2\text{H}, \text{R}_3 = \text{Me}, \text{R}_4 = \text{Hx}$ (28)

$\text{R}_1 = \text{Th}, \text{R}_2 = \text{H}, \text{R}_3 = \text{Me}, \text{R}_4 = \text{Hx}$ (29)

$\text{R}_1 = \text{Th}, \text{R}_2 = \text{H}, \text{R}_3 = \text{CF}_3, \text{R}_4 = \text{Hx}$ (30)

Reaksiya mexanizmi:





Viniloksi efirlarni yuqori unimda sintez qilish maqsadida, jarayonning harorat, reaksiya davomiyligi, boshlang'ich moddalar mo'l miqdori nisbatlari katalitik sistemaning selektivligi kabi omillar ta'siri o'rganildi. Bunda dastlab AD VOE unimiga haroratning ta'siri tadqiq etildi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, mahsulot unumiga haroratning ta'siri katta ahamiyatga ega, chunki reaktordagi harorat 50 °C bo'lganda AD ga fenilatsetilen nukleofil hujum qilsada, reaksiyaning to'liq va oxirigacha bormasligi, fenilatsetilenning katalizatorlar yuzasiga adsorbsiyalanib, katalitik markazlar faolligini pasaytirishi natijasida mahsulot unumi yuqori chiqmadi.

2-jadval


**Atsetilen diollari viniloksi efirlari unumiga haroratning ta'siri
(reaksiya davomiyligi 10 soat, Ti(OTf)₄ miqdori C_{akt} massasiga nisbatan 8 %)**

AD VOE	Mahsulot unumi, %			
	50 °C	70 °C	90 °C	100 °C
19	76,3	87,5	67,1	52,2
20	75,6	86,8	66,4	56,1
21	74,2	85,4	65,5	55,2
22	73,8	84,8	64,3	53,1
23	73,5	82,6	59,1	54,2
24	71,2	81,5	58,3	51,7
25	74,5	84,1	62,5	53,9
26	73,4	83,3	61,6	51,1
27	72,4	81,8	60,4	52,5
28	71,6	82,3	59,3	50,7
29	70,8	80,4	58,1	47,2
30	68,1	79	56,2	43,3

Reaktordagi haroratni 70°C ga oshirganimizda esa mahsulot unumi ortishi kuzatildi. Bunda Ti(OTf)₄ katalizatori eng yuqori faollikga ega bo'ldi hamda reaksiya jarayonining borishiga ta'siri kuchayib bordi, bu esa, o'z navbatida, AD molekulasiga fenilatsetilenning birikishi uchun eng qulay muhit yaratilishiga olib keldi. Haroratni 90-100°C ga oshirganimizda diviniloksi efirlarning unumi eng minimum miqdorda hosil bo'ldi. Bunda haroratning ko'tarilishi Ti(OTf)₄ ning muqobil ishlash haroratidan yuqoriligi sababli katalizatorning aktivligi kamayib ketishi, VOE qisman polimerlanishi kabi omillar mahsulot unumining pasayishiga olib keldi. VOE sintezi 70 °C haroratda, 10 soat vaqt davomida olib borilganda

boshlang'ich moddalarning yuqori darajada dissotsiyalanishni namoyon qilishi, natijada faol markazlar va ularni to'qnashuvlar soni maksimum orqali o'tishi hisobiga VOE eng yuqori unum bilan sintez qilindi.

Atsetilen diollarini benzil spirti bilan reaksiyalari. $\text{Cu}(\text{OTf})_2/\text{Et}_3\text{N}/\text{CH}_2\text{Cl}_2$ katalitik sistemasida AD benzil spirti bilan reaksiyalari asosida mos ravishdagi oddiy efirlar (31-42) sintez qilindi. $\text{Cu}(\text{OTf})_2$ ning AD gidroksil guruhiga nukleofil birikishi ikki bosqichda amalga oshadi. Birinchi bosqichda Cu^{2+} ionlari gidroksil guruhining elektronlarini o'ziga tortadi va gidroksilni aktivlaydi. So'ngra sistemadagi kuchli asos trietilamin aktivlangan gidroksilni protonlaydi, bu esa, o'z navbatida, gidroksil guruhining protonsiz holatini taminlab, nukleofil hujumni kuchaytiradi va protonsiz atsetilen dioli Cu^{2+} ionlari bilan kompleks birikmani hosil qiladi. Keyingi bosqichda ushbu kompleks birikma benzil spirti bilan ta'sirlashib tegishli oddiy efirlar hosil qiladi.



Oddiy efirlarni sintez qilish reaksiyalari to'rt soat davonida dixlormetan eritmasida $25 \div 75^\circ\text{C}$ haroratlarda olib borildi. Jarayon hona haroratida olib borilganda efirlar unimi past chiqishi kuzatildi. Haroratni 50°C ga oshirganimizda Et_3N AD gidroksil guruhni pratonlab $\text{Cu}(\text{OTf})_2$ ning birikish jarayonini tezlashtirib, oddiy efirlarning yuqori unim bilan chiqishini ta'minladi.

3-jadval

Atsetilen diollari oddiy efirlari unumiga harorat ta'siri


Oddiy efirlar	Mahsulot unimi, %		
	25°C	50°C	75°C
31	57,1	87,0	81,4
32	56,0	86,4	80,5
33	55,0	86,0	79,0
34	53,0	85,3	77,8
35	54,0	84,5	75,2

3-jadval davomi

36	51,7	82,5	74,6
37	53,9	83,1	78,3
38	51,0	81,7	77,5
39	52,5	83,8	76,6
40	50,7	82,9	75,1
41	47,0	81,4	74,5
42	43,0	80,7	72,8

